

# Bolalar uyi

Katherine E. Zimmermann – Wiget

O'zbekiston bolalariga bag'ishlanadi

Mansur Rahimov  
tarjimasi



Toshkent  
"Bekinmashoq - plus"  
2008




# Orphanage

Katherine E. Zimmermann – Wiget

for children of Uzbekistan

translated by

Mansur M. Rahimov



Tashkent  
"Bekinmashoq - plus"  
2008





omg'irli kun edi. Tashqarida yomg'ir yog'ayotganligi sabàbli Malika va Teddi yotoqxonada o'tirar edilar. Teddi juda tushkun kayfiyatda edi. Malika qanchalik harakat qilmasin uning chehrasi ochilmadi. U o'yinga tushib, ashula ham ayfib berdi, raqsga ham tushdi, lekin Teddi g'amgin kayfiyatda kratavtada o'tirardi. Malika charchadi va Teddining yoniga o'tirib:

– Qo'ysangchi Teddi. Nima bo'ldi o'zi? Agar men haqiqatdan ham eng yaqin do'sting bo'lsam menga hamma narsani aytishing kerak! – dedi.

– Ular qayerga ketgan deb o'ylaysan? – deb so'radi Teddi Malikadan.

– Xo'p, xonim xarid qilishga; bolalarning otasi esa ishga ketishdi:

– Yo'q, dedi Teddi. Men oilamizdagilar haqida emas. Do'kondagi do'stlarimiz haqida gapiryapman. Ular qayerga ketishgan? Ularga nima bo'lgan?

– Bilmadim, lekin umid qilamanki ular ham bizdek baxtililar – deb javob berdi Malika.

– Agar bunday bo'lmagan bo'lsa-chi?

– Oh, Teddi! Sen hali ham QOG'OZ-HALTAGA xafamisan?

Ularning do'kondagi ilk uchrashuvi va Teddining qog'oz-halta haqida aytganlari Malikaning hali ham esida edi. Uningcha qog'oz-haltaga tushgan har qanday o'yinchoq abadiy g'oyib bo'lardi.

– Yo'q, endi unchalik emas, lekin ularning qayerga ketganliklarini bilsam o'zimni yengilroq his qilardim. Ularning hammalari ham sotilgan emas, dedi past ovozda Teddi.

– Nima qilaylik deysan? – so'radi Malika.

Teddi Malikaga qaradi-da, shunday dedi:

– Biz do'konga qaytib borib ularni qidirishimiz lozim.

– Teddi, biz axir izquvarlar emasmiz. Men qo'rqaman, shu yerda qolib o'ynagim kelyapti!







It was a rainy afternoon.

Princess and Teddy were in the bedroom and it seemed that no matter what Princess did, she could not get Teddy to smile that day.

She tried everything, singing, dancing, but Teddy just sat on the bed with a sad look on his face.

Exhausted, Princess sat next to him and asked, – “Come on Teddy. Please tell me what is wrong. You know that if we are best friends you can tell me anything!”

Teddy looked at Princess and asked her, – “Where do you think they have gone?”

– “Well, Mother is shopping; Father is at work and the children....”

– “No,” said Teddy “not our family. I’m talking about our friends from the store. Where did they go? What happened to them?”

– “I don’t know, but I hope they were as lucky as we were” answered Princess.

– “And what if they weren’t”

– “Oh, Teddy! Are you still upset about the PAPER-BAG?”

Princess still remember when they first met at the store and Teddy explained to her what the paper-bag was. How he thought that whoever was put in bag disappeared forever.

– “Not so much anymore. but I would feel better if I knew where they went to. Not all of them were sold.” said Teddy in a small voice.

Princess asked. – “What do you think we should do?”



– Malika, biz omadli ekanmiz. Katta oilali, hashamatli uyga keldik! Bolalari quvnoq, onasi esa ko'plab pechenyelar pishiradi. Lekin men haligacha do'kon haqida o'ylayman.... Agar qolganlarning boshlariga tashvish tushib, yordamimizga muhtoj bo'lsalar-chi?

– Nima ham qila olamiz? – dedi Malika. O'zing bilasan, biz unchalik ham katta emas-miz. Qo'limizdan nima ham kelardi.

Teddi bu tong birinchi marta tabassum qildi.

– Mushuk bilan qanday urushganingni eslay olasanmi? Katta emasmish? Sen uni shunchalik qo'rqitib yuborgan edingki, u keyin hech qachon bizning hovlimizga qaytib kelmadi!

Ikkalalari ham tashqarida bo'lgan ilk sarguzashtlarini eslab kulishdi.

– Malika, dedi Teddi o'ta jiddiy ovozda, biz do'konga borishimiz va ularni topishimiz kerak. U yerga faqatgina kechasi, hech kim bo'lmaganda bora olamiz.

Malika ko'zlarini aylantirib, ichida: "Bu bizni tashvishga qo'yishini bilaman!" – deb o'yladi. Ammo Teddi Malikaning yordam berishga tayyor ekanligiga ishonch hosil qilishi uchun rozilik bildirdi.

– Yaxshi. Lekin biz tayyorgarlik ko'rib olishimiz zarur. Bizga fonar, xarita va boshqa zarur ashyolar kerak bo'ladi.

– Pechenyelar! Qo'shib qo'ydi Teddi.







Kunbo'yi ikkalalari ham eslariga kelgan barcha narsani to'plab kichkina sumkaga joyladilar. Teddi va Malika qorong'u tushib, oiladagilar uyquga ketguncha kutdilar.

– Lekin qanday qilib pastga tushamiz? Juda balandga o'xshaydi. Malika balandlikdan haligacha biroz cho'chirdi.


– Qara, baqirdi Teddi, biz tarnovdan sirpanib tushishimiz mumkin! Bu xuddi sirpanchiq uchishga o'xshaydi. Hech qanday muammo yo'q.

Teddi va Malika tomning cheti bo'ylab, bir-birlarining qo'llarini ushlagan holda, sekin-asta yura boshladilar. Pastga qaragan yo'l uzoq edi, shuning uchun Malika ko'zlarini yumub oldi. Ular tarnov quvuriga yetganlarida:

– Yaxshi. Endi ko'zlaringni ochishing mumkin, – dedi Teddi.











– Pastga, yani boqqa yetib olguningcha men seni kutib turaman, javob berdi Malika va Teddidan biror bir jo'yali fikr chiqarmikan deb unga qaradi. Teddi sumkani quvurdan pastga tashlab, sumka pastga yetib borishini kutib turdi-da, boshini qashlab:

– Unchalik baland emas..., – dedi.

– Nima qilayotganingni endi tushundim, dedi Malika. Har safar boshingni qashlaganingda yo ahmoqona fikr tug'ilgan bo'ladi, yo biror xatolik ro'y bergan bo'ladi.

– Hammasi joyida. Men faqat qaysi birimiz birinchi bo'lib tushushimiz kerakligini o'ylayapman.

U hali qaror qilib ulgurmasidan, Malika uni itarib yubordi va Teddi quvur bo'ylab pastga sirpanib tushib ketdi.

– Salom, Teddi! Malika quvur ichiga qarashga urindi. Teddi! Meni eshityapsanmi? Yaxshimisan? Endi men ham tushsam bo'ladimi?

U javob kutarkan, havotirlana boshladi, chunki tomda bir o'zi bo'lgani uchun biroz qo'rqinchli tuyula boshladi.

– Teddi! Men tushyapman! –deb baqirdi va quvurdan pastga sirpandi.

Malika bog'dagi quvurdan uchib chiqib, to'g'ri Teddining orqasiga kelib urilganda,



Teddy dropped the bag down the pipe and waited for the sound of it reaching the bottom.

– “Not such a long drop....” And Teddy started to scratch his head.

– “I see what you’re doing” said Princess.” Every time you scratch your head, you either get a really stupid idea or something is wrong”

– “Nothing is wrong. I’m just trying to figure out which one of us should go first”

Before he could decide Princess gave him a shove and he went down the pipe.

– “Hello Teddy!” Princess was trying to look into the pipe. “Teddy! Can you hear me? Are you OK? Can I come now too?”

She waited for an answer, but was getting a bit worried and the roof was a bit scary all on her own now.

– “Teddy! I’m coming!” she cried and jumped down the pipe.

At the bottom in the garden Teddy was just trying to get up when Princess came flying out of the pipe and hit him right on his bottom!





u endigina o'rnidan turishga harakat qilayotgan edi.

– Oh! baqirdi Teddi, har doim mening ustimga kelib qo'nishing shartmi?

– Juda yumshoqsan-da..., – deya kuldi Malika.

Teddi o'rnidan turib sumkani ko'tarib oldi. U boqqa nazar tashlar ekan, yana boshini qashlay boshladi.

– Yana nima? – so'radi Malika.

– Endi do'konga olib boradigan yo'lni qanday topamiz? Bu yerga kelayotgani-

mizda ko'zlarimni yumub olganim tufayli, yo'lni eslay olmayman.

– Omadli ekansan, men xarita topgandim, dedi Malika. □atto do'kon qayerda ekanligini ham bilaman. Bu yerdan unchalik uzoq emas, lekin men qorong'uda yurishdan qo'rqaman. Qanday qilib borishimiz mumkin u yerga?

– Sen ham omadlisan, chunki menda "O't o'chirish mashinasi bor!" – javob berdi Teddi va bog'dagi o't o'chirish mashinasi tomon yurub ketar ekan, shlemini kiyib oldi.





and I even fou where the e!





– Men hayday? Men hayday? – dedi Malika o'ta hayajonlanib.  
– Yo'q, deb javob berdi Teddi, sen xaritani o'qib berishing lozim, qolaversa menda haydovchilik tajribasi ko'proq.

Ikkalalari ham mashinaga chiqib olishdi va Teddi odatdagidek chiroqlar hamda sirenalarni yoqib oldi.

– Yooooo'q! – baqirdi Malika, va uni to'xtatish uchun qo'lini tashqariga chiqarib oldi. Butun xonadon ahlini uyg'otib yuborasan, ana unda haqiqiy tashvishga duchor bo'lamiz.

Shundan so'ng Teddi mashinani ohista bog'dan olib chiqib, yo'lka tomon haydadi. Malika esa uning yonida xarita orqali yo'lni ko'rsatib ketdi. Ikkalalari tun qorong'usida mashinani haydab borardilar va nihoyat do'konni topdilar. Teddi mashinani do'kon qarshisida to'xtatdi. Ular mashinadan tushib do'kon eshigini ochishga urindilar.

– Buncha ahmoqmiz, albatta qulflangan. Doim ichkarida bo'lganligim uchun, ular kechasi qulflab qo'yishlarini unutilbman, – dedi Teddi.

– Endi nima qilsak ekan? –so'radi Malika.

– Orqa tarafdagi oynalarni ko'raylik-chi.











Teddi va Malika do'konning orqa tarafiga aylanib o'tishdi. Juda qorong'u bo'lganligi sababli Teddi Malikaning qo'lini ushlab olish yaxshiroq ekanligini o'yladi. Bu bilan Malika o'zini yaxshi his etishiga u amin edi. Lekin barcha oynalar berk, haqiqatda juda qorong'u edi. Ular nima qilishni o'ylab, tushkun kayfiyatda yo'lkaga o'tirib oldilar.

– Ko'rdingmi Teddi, senga bu yaxshi fikr emas deb aytgan edim. Biz hech qachon u yerga kira olmaymiz. Buning ustiga sovuq qotyapman.

– Bas qil, chaqaloqlikni, – deb Malikani koyib berdi Teddi, va iltimos yig'ini ham bas qil. Bu yordam bermaydi.

– Yig'laganim yo'q! – dedi Malika. – Sen yig'layapsan! O'zim eshitdim!

Yo'q, yig'laganim yo'q! – dedi Teddi ma'yus ohangda.

– Ha, yig'lading! Hozirgina burun tortganingni eshitdim.

Teddi Malikaga qaradi, Malika esa

unga. Ikkalalari ham bir-birlariga tikilgancha, bir-birlariga yaqinlasha boshladilar. Ular baravariga: “Kim yig'layapti?” – dedilar.

– Men, – dedi past ovoz.

Teddi ham, Malika ham yonlariga burildilar, lekin hech kimni ko'rmadilar.

– Kimsan, qayerdasan? – so'radi Teddi.

– Kimsizlar? – so'radi past ovoz.

– Men Teddi, bu esa mening do'stim Malika. Biz shu yerda do'konda yashar edik.

– Teddi? – so'radi past ovoz. O'sha o't o'chirish mashinasini haydab, tun bo'yi o'ynaydigan Teddimi? O'sha uchinchi qator, ikkinchi tokchada yashaydigan Teddimi?

– Ha, qayerdasan axir... nega berkinyapsan.... Kimsan? – so'radi Teddi, Malikaning qo'lini haligacha ushlab turar ekan. Malika uning qolini o'ta qo'rqib ketganidanmi, juda qattiq qisardi.

– Bu men, Patrik. Bu yerdaman, axlat



Teddy looked at Princess and she looked at him. They both slowly moved toward each other, looking around them.

They both said at the same time, – “Who is crying?”

– “I am” a little voice said.

Both Teddy and Princess turned around but could not see anyone.

– “Who are you and where are you” asked Teddy.

– “Who are you?” asked the little voice.

– “I am Teddy and this is my friend Princess. We used to live here in the store”.

– “Teddy?” asked the little voice, “That Teddy that drives fire trucks and plays all night? That Teddy that used to live on the second shelf in aisle three?”

– “Yes, but where you are... why are you hiding.... Who are you?” asked Teddy, still holding on to Princess’s hand. She must have been very scared by now and was squeezing his hand really hard.

– “It’s me. Patrick. Here I am, under the garbage container. Can you help me get

out? I’m stuck”

Teddy looked at Princess, – “My friend the clown. He was always there for me when I was sad. We have to help him.”

Princess got down and looked under the garbage container.

– “Teddy, he’s stuck. Get on the other side and push. I’ll pull him and Be careful!”

Teddy pushed and Princess pulled until they got their friend out. He was dirty and hungry.

Princess opened the bag, gave him a cookie and said to Teddy, – “I thought that clowns were funny. Your friend doesn’t look funny at all!”

– “I used to be funny,” said Patrick, “but then all my friends were put in paper bags and the children stopped playing with us. They only wanted those games. You know the ones where they sit, for hours all by themselves. Then the worst part came when the people thru all of us in the garbage!”





qutisining ostida. Chiqib olishimga yordam berib yubora olasanmi? Qisilib qoldim.

Teddi Malikaga qarab: – Mening masxaraboz o'rtog'im. Qachon zeriksam, u doim men bilan birga bo'lar edi. Biz unga yordam berishimiz kerak, dedi. Malika pastga tushib, axlat qutisining tagiga qaradi.

– Teddi, u tiqilib qolibdi. Narigi tarafga o'tib, itarib yubor. Men uni tortib olaman. Ehtiyot bo'!

Va nihoyat Patrikni axlat qutisining tagidan eson-omon chiqarib oldilar. Ammo u juda nochor ahvolda edi. Malika sumkani ochib, unga pechenye berdi va Teddiga: – Masxarabozlar quvnoq bo'lishadi deb o'ylardim. O'rtog'ing umuman quvnoq ko'rinmaydi! dedi.


– Men quvnoq edim, dedi Patrik, lekin keyin barcha o'rtoqlarim, qog'oz haltalarga solindi va bolalar biz bilan o'ynamay qo'ydilar. Ular faqat o'sha o'yinlarni xohlashar edi. Bilasanmi, ertayu-kech soatlab bir o'zlari o'tirishadi. Shundan so'ng odamlar hammamizni axlatga uloqtirishdi, bu eng yomoni edi!

– Axlatga!!!! Teddi beixtiyor baqirib yubordi. Qandaydir noxushlik borligini blardim. Ular hozir qayerda?

Haligacha o'sha yerdalar, dedi Patrik. Ularni qutqarishga harakat qilayotganimda qisilib qoldim. Bizga yordam berishing kerak. Teddi burilish bo'ylab yugurdi. Malika bilan Patrik mashina sirenasini eshitgunlariga qadar, uning nima qilmoqchi ekanligini tushunib yetishmadi. Teddi iloji boricha tezroq haydashga urindi. Burilishda tezlikni yanada oshirdi. U mashinadan sakrab tushib, narvonni qutining yuqori qismiga qadar ko'tara boshladi.







– “In the garbage!!!!” Teddy couldn't believe what he was hearing. “I knew something was wrong. Where are they now?”

– “Still there” said Patrick. “I was trying to get them out when I got stuck. You have to help us.”

Teddy ran around the corner. Princess and Patrick had no idea what he was going to do, until they heard the fire truck's siren.

Going as fast as he could, Teddy came racing around the corner. He jumped out of the truck and started to run the ladder up to the top of the container.

– “What are you doing?” asked Princess.

– “I'm going in there. We have to get them out before the container is picked up in the morning.”

Princess stayed on the sidewalk holding Patrick's hand while Teddy started to climb up the ladder.

– “Be careful!” shouted Patrick, who seemed to feel better after eating the cookie and holding on to Princess.

They both moved slowly toward the fire truck as Teddy started to reach for the container lid.....

Just as Teddy was about to open it, the lid slowly started to rise by itself..... squeaking as it opened.... Teddy was frozen... and then..... Two big eyes looked out at Teddy and a little voice said, “hello..... Can you help us out of here?”


Teddy opened the container all the way and out came a giraffe!

– “Hello, my name is Susi! You must be Teddy. Patrick told us about you” she said.

– “Us? You mean there are more in there. How many?”

Susi turned her head around and said, “It's safe. Come on up my neck and Teddy will help you down the fire truck ladder.”





– Nima qilyapsan? – so'radi Malika.

– Men u yerga chiqmoqchiman. Ertalab qutini olib ketmaslaridan, biz ularni chiqarib olishimiz zarur.

Teddi narvondan chiqa boshlaganida, Malika yo'lkada Patrikning qo'lini ushlab turardi.

– Ehtiyot bo'!! baqirdi Malikaning qo'lini ushlab turgan Patrik. U pechenyenilarni yeb o'zini biroz yaxshi his qilayotgandek ko'rinardi.

Teddi quti qopqog'iga yetib borishi bilanoq ular o't o'chirish mashinasi tomon sekin-asta yura boshladilar. Teddi quti qopqog'ini endigina ochmoqchi ham ediki, u o'z-o'zidan ko'tarila boshladi... Teddi hayratdan qotib qoldi ... va.... Ikkita katta ko'zlar unga tikilib, past ovozda – "Salom,... Bu yerdan chiqishimizga yordam bera olasanmi?" – dedi.

Teddi qutini to'liq ochib yubordi va undan jirafa chiqib keldi!

– Salom, mening ismim Suzi! Sen Teddi bo'lsang kerak. Patrik sen haqingda bizga aytgan edi, – dedi.

– Bizga? Bu yerda ko'pchilikmiz demoqchimisana?

Suzi kallasini orqasiga burib: – Havotirga o'rin yo'q. Kelinglar, Teddi sizlarga o't o'chirish mashinasi narvondan tushib olishingizga yordam beradi, – dedi.



Slowly up came ..... a bunny..... a little puppy dog.... and a kitten.  
Teddy helped them all down the ladder where Princess and Patrick were waiting.

And just as Teddy was about to come down himself the bunny started to cry.

– "Please go back in there! I've lost my one ear! It must be in there!"

Teddy climbed into the garbage container and after a few moments he came out holding one ear.

Princess was busy trying to clean up the other animals. They were tired and hungry. She opened the bag and took out the rest of the cookies. This time Teddy didn't complain. He saw how afraid they were and wanted to help also.

Susi the giraffe told them what happened:

– "They said that no one wanted us anymore. They put us here in the garbage! It was dark and kitty hurt herself!"

– "It's not so bad" said Kitty "I just scratched myself."





Ohista yuqoriga quyoncha, kuchukcha va mushukcha chiqib keldilar. Teddi ularga, Malika va Patrik kutayotgan joyga tushib olishlariga yordam berdi. Endigina Teddi ham pastga tushmoqchi bo'lib turgan ham ediki, quyoncha:

– Iltimos orqaga qayt! Bitta qulog'imni yo'qotib qo'ydim! O'sha yerda bo'lishi kerak! deb yig'lay boshladi.

Teddi axlat qutisiga oshib tushdi va bir necha daqiqadan so'ng bir quloqni tutgan holda qaytib chiqdi. Malika boshqa hayvonlarni tozalash bilan band edi. Ular och va horigan edilar. U sumkani ochib, qolgan pechenyelarni oldi. Bu safar Teddi norozilik bildirmadi. Ularning qay darajada qo'rqqanliklarini ko'rgan va o'zi ham ularga yordam berishni istar edi. Jirafa Suzi, ularga nima bo'lganligini aytib berdi:

– Endi bizni hech kim o'ynamasligini aytdilar va axlatga uloqtirdilar! Bu yer juda qorong'u bo'lganligi sababli mushukchaga shikast yetdi!

– Unchalik emas, dedi mushukcha. O'zimni biroz tirnab oldim xolos.

– Juda mard ekansan, dedi unga Malika. Hozir esa bu yerni tibbiy bint bilan bog'lab qo'yaman.

Teddi kuchukchanning tozalanishiga yordam berish bilan mashg'ul bo'ldi, u hatto kuchukcha o'zini yaxshiroq his etishi uchun shlemini kiyishga ham ruxsat berdi.





- "You were very brave" Princess told her. "Now let me put a band aid on that."  
Teddy was busy helping Puppy get cleaned and even let him wear his helmet to make him feel better.

- "Where do you live" asked Susi.

- "We live in a house with two children," answered Princess. "A boy and a girl. The parents are really nice and they take good care of us".

- "Do you get to sleep in the bed with them" asked Kitty

- "Sure! We even get to play all we want and the mother makes great cookies!" Teddy continued. But as he saw how sad the others were he stopped.

- "All I wish for is someone to let me sleep with them in their bed. I would be very good and watch out while they are asleep and protect them!" sighed Puppy.

- "I'm not very big" said Bunny, holding on to her ear. "But when I have both ears on, I can hear a lot."

- "I can see really far because my neck is very long." Susi stretched her self to show how tall she was.





– Qayerda yashaysizlar, – so'radi Suzi.  
– Biz ikkita farzandi bor xonadonda yashaymiz, javob berdi Malika. Bir o'g'il va bir qiz. Ota-onalari juda mehribon ular bizga juda ham yaxshi munosabatda bo'ladilar.

– Sizlar ular bilan bir yotoqda uxlaysizlarmi? – so'radi mushukcha.

– Albatta! Biz hatto istaganimizni o'ynaymiz, shuningdek xonim juda ham mazzali pechenyelar pishiradi! – davom etdi Teddi. Lekin boshqalarning naqadar g'amgin ekanliklarini ko'rib to'xtadi.

– Eng katta istagim, birortaning menga o'z yotog'ida birga uxlashimga ruxsat berishidir. Men juda ham yaxshi kuchukcha bo'lardim va ularni uxlayotganlarida kuzatib, himoya qilardim! – xo'rsindi kuchukcha.

– Men uncha ham katta emasman, dedi quyoncha, qulog'ini ushlagan holda. Lekin ikkala qulog'im ham bo'lganda edi juda ham ko'p narsalarni eshitishim mumkin edi.

– Men ancha uzoqni ham ko'ra olaman, chunki bo'ynim juda uzun. Suzi o'zining qay darajada baland ekanligini ko'rsatish uchun kerishib qo'ydi.

Men bolalarni kuldirib kayfiyatlarini ko'tara olaman. Chunki juda ko'p latifalar bilaman, dedi Patrik.

– U yerda sizlar uchun ham joy bo'lishi kerak, deya fikrini oshkor etdi Teddi.

– Balki, javob berdi Suzi. Barchamiz ul-oqtirilganimizdan so'ng, hech ham ayrilishni xohlamaymiz. Bilaman, biz sizlar bilan uyingizga bora olmaymiz, lekin yasha-shimiz uchun joy topishimiz kerak.

– Biror narsa o'ylarmiz, dedi Malika. Lekin hozir bu yerni tark etishimiz shart. Bir qarorga kelguningizcha, bizning uyga borasizlar.





- "I know a lot of jokes. I can make children laugh" Patrick said.
- "There just has to be a place for you also." thought Teddy out loud.
- "Maybe" answered Susi, "but after all we have been thru together we really don't want to be separated. I know we can't come home with you, but we have to find a place for us to live."
- "We'll think of something" said Princess, "but for now we have to get away from here. Until we know what to do, you'll have to come home with us"

They all got onto Teddy's truck and he started down the sidewalk. Princess was sitting up front with him and the others were on the back.

- "Teddy" she said, "we have to think of something soon. It will be morning in a few hours. We have to find them a new home!"

- "What can we do? Our house is full and we only have two children. They need children of their own. They need their own beds and someone to whisper their name."

- "We'll think of something.. But where are we going to find them? The garden is too dangerous with that awful cat and the people will find them in our room."





Hammalari Teddining mashinasiga chiqishdi, va u yo'lka bo'ylab harakatlana boshladi. Malika Teddi bilan birgalikda mashina oldiga, qolganlar esa orqaga joylashdilar.

– Teddi – dedi, Malika tezroq biror narsa o'ylashimiz zarur. Bir necha soatdan so'ng tong ham otadi. Ularga yangi boshpana topishimiz kerak!

– Nima qilishimiz mumkin? Uyimiz to'la, qolaversa bola ham ikkita. Ularga o'zlarining bolalari kerak. Dostlarimizga esa o'z krovatlarida, nomlarini pichirlab aylantirgan biror kishi kerak.

– Bir nima o'ylab toparmiz. Lekin ularni qayerga yashiramiz? Bog' anavi yoqimsiz mushuk tufayli juda xavfli, xonamizda esa uy egalari ularni topib olishlari mumkin.

– Mehmonxona-chi? Uy egalari u yerda bir marta turishganini eshitgan edim.

Malika endi kulib yubordi.

– Oh, Teddi! Mehmonxona shunday bir joyki, uning xonasi uchun

pul to'lashing kerak va u yerga faqat odamlar bora olishadi. Bizga boshqa joy zarur.... Ko'plab xonalari va ko'plab bolalari bo'lgan joy.

– Maktab! – javob berdi Teddi, o'zining bu fikridan g'ururlanib!

– Bolalar maktabda uxlamaydilar, shuningdek u yerda krovatlar ham yo'q. Bizga boshqa bir qulayroq joy kerak.

Teddi shu qadar chuqur o'yladi, qayerda ketayotganligini ham unutib qo'ydi va mashina chuqurga tushib ketdi.





“What about a hotel? I heard that mother and father stayed there once.”

Princess had to laugh now. “Oh, Teddy! A hotel is a place where you have to pay for a room and only people can go there. We need another place.... A place with lots of rooms and lots of children.”

“The school!” answered Teddy, very proud of himself for this idea!

“Children don’t sleep in a school and there are no beds there. We need another place.”

Teddy was thinking so hard that he forgot to look where he was going and the truck ran into a hole. Everyone fell out of the truck onto the sidewalk.

“Is anyone hurt?” cried Princess.

“No, we’re all o.k.” answered Bunny as she picked up her ear, “I’m just really tired.”

“Me too,” said Puppy. “Does anyone know where we’re going?”

Princess sat down next to Puppy and took out her map. “Let’s take a look where we are first, and then we can decide where to go.”

On the side walk all of them sat down around the map. They all started to point at different parts of map saying:

“I wanna go here”

“No here”

“Let’s go down here”

They all were talking at once and Teddy was working on his fire truck.

“It looks like we’re gong to have to walk from here. I can’t get the fire truck out of the hole.” Teddy was very sad about his truck, but did not want the others to feel bad,

so he put on his helmet and said,

“We’re off!! Let’s go”





Barchalari mashinadan yo'lkaga yiqildilar.

– Hech kim shikastlanmadimi? – havotirlanib baqirdi Malika.

– Yo'q, hammamiz yaxshimiz, javob berdi quyuncha, qulog'ini ohista olar ekan. Faqat juda charchadim.

– Men ham, dedi kuchukcha. Biror kishi biladimi qayerga ketayotganimizni?

Malika kuchukchani yoniga o'tirib, xaritasini oldi.

– Avvalambor qayerda ekanligimizga bir qaraylik, ana undan keyin qayerga borishimizni hal qilamiz.

Barchalari xarita atrofiga kelib o'tirdilar. Ular xaritaning turli joylariga niqtab:

– Bu yerga borgim kelyapti.

– Yo'q, bu yerga.

– Pastga, bu yerga boraylik.

Barchalari birvarakayiga gapirishar, Teddi esa o't o'chirish mashinasi ustida ishlar edi. Bu yerdan piyoda yurishimizga to'g'ri keladigan ko'rinadi. O't o'chirish mashinasini chuqurdan chiqara olmayapman. Teddi juda xafa bo'ldi, lekin boshqalarning ham qayg'uga botishlarini istamadi.

Shuning uchun shlemini kiyib: "Bo'ldi! Qani ketdik!" – dedi.







All the animals got up and started down the street. Teddy held on to Patrick the clown and Princess rode on Susi the giraffe.

They decided to go as far away from the store as possible, just in case someone came looking for them.

The street was quiet and dark. Kitty and Puppy were tired and Susi had to pick-up Bunny.

They stopped at a corner for Princess to check the map. The animals were impressed that she could read. Teddy had to boast that he could read also, and that he was teaching Princess how to drive!

– “O.K. Teddy, then read the next sign you can see” called out Princess, without looking up from the map.

That put Teddy in a spot. He was learning, but was not sure of all the new words Princess had taught him.



Barchalari o'rinlaridan qo'zg'alib yo'lka bo'ylab harakatlana boshladilar. Teddi, masxaraboz Patrikni ushlab oldi, Malika esa jirafa Suzini minib oldi. Har ehtimolga qarshi ular do'kondan iloji boricha uzoqroqqa ketishga qaror qildilar. Ko'cha tinch va qoron'gu edi. Mushukcha va kuchukcha juda charchashgan, Suzi esa quyunchani ko'tarib olgan edi. Malika haritaga qarab olishi uchun bir chekkada to'xtashdi. Uning o'qiy olishidan hayvonlar hayratlanishdi. Teddi, ham o'qiy olishini va Malikaga haydashni o'rgatayotganligini aytib maqtandi!

– Yaxshi Teddi, u holda keyingi belgini o'zing o'qiysan, dedi Malika, boshini xaritadan ko'tarmagan holda.

Bu Teddini dovdjratib qo'ydi. U endigina o'rganayotgan edi, lekin Malika o'rgatgan hamma yangi so'zlarni hali unchalik yaxshi bilmas edi.





- "Or....or.... or..." he started.  
- "Or what" laughed Princess.  
- "Or.... Fan.... Orfan...." Teddy was really trying to concentrate, but it was hard when 5 very frightened animals were watching him.  
- "Come on Teddy, you remember. Read all the letters at the same time. Not one by one" coached Princess.  
- "or...fan...age... orfan..age... ORFANAGE! Got it!" cried Teddy, hopping up and down. "Orfanage! Orfanage! GREAT! What does that mean?" he asked Princess.



orphanage



- Bo.....bo.... bo...– deya o‘qiy boshladi.  
– Nima bo?, – kuldi Malika.  
– Bo.... Bol.... Bola.... Teddi fikrini jamlab olishga juda harakat qilardi, lekin quti o‘chgan besh hayvon unga qarab turganida buning uddasidan chiqish qiyin edi.  
– Bo‘laqol Teddi, esla. Barcha harflarni bir vaqtda o‘qi. Birma-bir emas o‘rgatdi Malika.  
– Bol...bola...bolalar...uyi...BOLALAR UYI! Uddaladim! sakrab-sakrab, baqirdi Teddi. Bolalar uy! Bolalar uy! Zo‘r! Bu nimani bildiradi? – deb so‘radi u Malikadan.






Princess stopped looking at the map and walked over to the sign. It was on the sidewalk, painted in red and blue. Behind the sign was a house.


– “Well? What does it mean? Are we on the right road? Did we get lost?” Teddy was worried. Normally Princess answered right away.

– “An Orphanage is a home where children live that lost their parents.” explained Princess. “They all live here together and adults take care of them”.


– “That means that there are children in there? How many?” asked Bunny?



orphanage







Malika xaritaga qarashni to'xtatib, belgi tomon yura boshladi. Bu belgi, qizil va ko'k rangli bo'lib, belgi ortida esa uy bor edi.

– Xo'sh? Bu nimani bildiradi? Biz tog'ri yo'ldamizmi? Adashdikmi? Teddi avotirlanayotgan edi, odatdagidek Malika darhol javob berdi.

– Bolalar uyi, shunday bir joyki u yerda ota-onasini yo'qotgan bolalar yashashadi deb tushuntirdi Malika. – Ular hammalari birgalikda yashaydilar, kattalar esa ularga g'amxo'rlik ko'rsatadilar.

– Demak, u yerda bolalar ko'p ekan-da? Nechta? – so'radi quyuncha.

– Bilmayman, tabassum qila boshladi Malika. – Lekin garov o'ynashim mumkinki, u yerdagi bolalar kechasi uxlatyotganlarida quchoqlab olishlari uchun kimgadir muhtojlar!

– Menga! Menga! Menga! – baqirdi mushukcha. – Meni kechasi quchoqlab olishlarini yaxshi ko'raman. Uxlagunimcha miyov-miyovlab chiqaman.



– “I don’t know” Princess started to smile, “but I can bet that those children really need someone to hold when they go to sleep at night!”

– “Me! Me! Me!” cried Kitty. “I love to be held at night. I purr and purr and purr.... until I fall asleep”.

– “Lets go in and take a look” Teddy was already on his way to the house. The others followed him and he found a window that was open.

They all climbed in and discovered that they were in the kitchen,

– “Maybe they have cookies” thought Teddy out loud.


– “Not now” whispered Princess. “We have more at home and we have to find a place for our friends before it gets light outside!”

They all walked as quiet as they could up the stairs and looked in the first room.

In the big bed was sleeping a very fat lady with curlers in her hair, snoring!

– “I don’t want that bed!” cried Puppy. “She’s too big!”

Princess laughed, – “Don’t worry. We just have to find where the children sleep”.





– Qani ichkariga kirib ko'raylikchi, – deya Teddi uy tomon yura boshladi.

Qolganlar esa unga ergashdilar, shunda uning ko'zi ochiq turgan derazaga tushdi.

Derazadan hammalari oshib tushganlarida oshxonada ekanliklarini fahmladilar.

– Balki, pechenyelari bordir – baqirib yubordi Teddi.

– Hozir vaqti emas – pichirladi Malika. – Uyimizda pechenye ko'p, hozir esa, tong otmasidan, o'rtoqlarimizga joy topishimiz kerak!

Ular barchalari ohista yuqoriga chiqdilar va birinchi xonaga qaradilar. Katta krovatda, sochlariga bigudi qadagan, juda semiz bir xonim qurrak otib uxlardi!

– Bu krovatda yotmayman! – baqirdi kuchukcha. – Xonim juda katta ekan!






At the end of the hall they found the room. It was big and long. There were 5 beds in it. And there were 5 children!

The animals walked in and looked at the children sleeping. They walked over to each bed and looked at the child.

– “Will they say their names like the children did with us?” whispered Teddy to Princess.

– “No. They are sleeping, but our friends know exactly which child is theirs!”







Malika kulib: – Tashvishlanma. Bor-yo‘g‘i bolalar qayerda uxlayotganini topsak bo‘lgani.

Vestibyl oxirida bir xonaga duch keldilar. U katta va uzun edi. U yerda beshta krovatda besh bola uxlar edi.

Qo‘g‘irchoqlar ichkariga kirdilar va uxlayotgan bolalarga qaradilar. Ular har bir krovat yonidan o‘tar ekanlar, har bir bolaga bir-bir qarab chiqdilar.

Ular ham o‘rtoqlarining ismlarini aytib chaqiradilarmi? – pichirladi Teddi Malikaga.

– Jim, ular uxlashyapti, lekin o‘rtoqlarimiz aynan qaysi bola bilan do‘stlashishni o‘zlari bilishadi!

Jirafa Suzi sepkilli, qizil sochli bolani tanladi, va uningcha bu eng bo‘yni uzun bola edi!

Quyuncha kichkina qizcha uxlayotgan krovat yoniga keldi. U tush ko‘rayotgan va hamon burnini jiyirib uxlayotgan edi.





Susi the giraffe found a little boy with red hair, freckles and, for a child, what she thought to be a very long neck!


Bunny walked up to a bed where a little girl was sleeping. She was dreaming and kept wrinkling her nose in her sleep.

Puppy sniffed at a bed and pulled the cover back up that had fallen off. In the bed was a boy! His hair was sticking straight up and he had a collection of sports cards on his night table.

Patrick was standing in front of the last bed. Sleeping in it was a boy. He looked so sad and Patrick was sure he saw a tear in the corner of his eye.







Kuchukcha krovatni hidlab choyshabni tortgan edi u pastga tushib ketdi. Krovatda sochlari tikka-tikka bo'lib o'sgan, bir bola shirin uyquda edi! Uning yonidagi stol ustida esa sport kartalarining to'plami yoyilib yotar edi.

Mushukcha hamma yog'i pushti bo'lgan krovatni tanladi! Bu uning yoqtirgan rangi edi. Krovatda och-sariq sochli, pushti lentali bir qiz miriqib uxlayotgan edi.

Patrik oxirgi krovat oldiga kelib turdi. Unda uxlayotgan bola juda g'amgin ko'rinardi, Patrik uning ko'z qirida hatto yosh ham ko'rdi.

Ohista, bolalarni uyg'otib yubormaslik uchun, barcha hayvonlar krovatlarga chiqib, choyshab ichiga kirib yotdilar. Har birlari bolalarning issiqqina pinjiga kirib oldilar. Endi ularning yuz-ko'zlaridan mamnunliklari sezilib turardi.





Kitty picked the bed all in pink! That was her favorite color. Sleeping in the bed was a girl with blond hair and a pink ribbon.

Slowly, as not to wake the children, all the animals got up on the beds and under the covers. Each of them found a nice arm place beside their own child. They all looked truly happy for the first time.







– Menimcha uyga ketadigan vaqtimiz bo‘lib qoldi – pichirladi Malika. – Do‘stlarimiz o‘z uylarini topdilar.

Teddi va Malika o‘rtoqlari bilan astagina hayrlashib ko‘cha tarafga qarab yo‘l odilar.

– Bilasanmi? – dedi Teddi Malikaga mashinasi turgan joyga qarab yurar ekanlar, – men juda xursandman. Mashinamdan ajralib qolishimga bir bahya qolgan bo‘lsa ham, ular barcha pechenyelarimni yeb qo‘ygan bo‘lsalar ham.... Men o‘zimni yaxshi his qilayapman!

– Men ham, – javob berdi Malika. – Bu bolalar ham xursand bo‘lishadi, shuningdek, o‘rtoqlarimiz ham barchalari yaxshi do‘stga va yaxshi uyga ega bo‘ldilar!







– “I think it is time we started home” whispered Princess. “Our friends have found their home.”

Teddy and Princess quietly said good-bye to their friends and walked back out to the street.

– “You know” said Teddy as they started back towards where his truck was, “this was really good. Although I almost lost my truck and they ate all my cookies.... I feel good!”

– “Me too” answered Princess. “Those children will be happy and our friends have a good home all together!”



– To'g'ri men ham uyimizni yaxshi ko'raman. Menimcha, qo'lga tushib qolmasligimiz uchun tez haydasam yaxshiroq bo'lardi!

Teddi va Malika o'z uylari tomon yo'l oldilar. Ular yana o'z krovatlarida, o'zlarining sevimli o'rtoqlari bilan birga bo'lganliklaridan mamnun edilar.

TUGADI

– “Well, I like our home, and I think I'd better drive fast so we won't get caught!”

Teddy and Princess drove home and were happy when they were back in their beds with their boy and girl.

THE END

